



UO'K: 821.512.122.09

## YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARI VA UNDA OTA OBRAZI

## YUSUF KHAS HOJIB'S WORK "QUTADG'U BILIG" AND THE IMAGE OF THE FATHER IN IT

## ПРОИЗВЕДЕНИЕ ЮСУФА ХАС ХОДЖИБА «КУТАДГУ БИЛИГ» И ОБРАЗ ОТЦА В НЁМ

Abdullayeva Dildoraxon Murodiljon qizi   
Namangan davlat universiteti doktranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Qoraxoniylar davri adabiyoti vakili sifatida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari chuqur tahlilga tortilgan. Asarning badiiy-estetik qiymati va uning mazmuniy qirralari germenevtik, struktural-poetik, psixologik hamda kontekstual tahlil usullari orqali yoritilgan. Tadqiqotning asosiy e'tibori asardagi ota obraziga qaratilgan bo'lib, uning keng ko'lamli talqini orqali muallifning o'ziga xos tasvir uslubi, obraz yaratish mahorati va ularga yuklatilgan funksiyalarning zamonaviy dolzarbligi ko'rib chiqilgan. Maqolada "Qutadg'u bilig" asari davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi, davr muammolari hamda insonning "men"i va ichki olami, axloqiy qadriyatlarini hamda hayotni to'g'ri tashkil etish masalalari asosiy mavzular sifatida tahlil qilingan. Ota obrazi orqali asarda "komil inson" — ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirish g'oyasi ilgari surilgan. Mazkur tadqiqot O'rta asr turkiy adabiyotning ma'naviy-estetik qadriyatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy o'quvchi va tadqiqotchilarga asarning chuqurroq anglanishiga xizmat qiladi.

**Abstract**

This article presents an in-depth analysis of Yusuf Khos Hajib's "Qutadgu Bilig" as a representative work of the Karakhanid period literature. The artistic and aesthetic value of the work, along with its thematic dimensions, is explored through hermeneutic, structural-poetic, psychological, and contextual methods of analysis. The main focus of the study is on the image of the father, whose broad interpretation reveals the author's unique descriptive style, mastery in character creation, and the contemporary relevance of the functions assigned to these images. The article examines the social-political context and issues of the period, the human "self" and inner world, moral values, and the problem of properly organizing life as the primary themes. Through the father figure, the idea of shaping the "perfect human" — morally, spiritually, and socially mature personality — is advanced. This research plays an important role in illuminating the spiritual and aesthetic values of medieval Turkic literature and aids modern readers and scholars in gaining a deeper understanding of the work.

**Аннотация**

В статье представлен глубокий анализ произведения Юсуфа Хос Ходжиба «Кутадгу Билиг» как яркого образца литературы Караханидского периода. Художественная и эстетическая ценность произведения, а также его тематические аспекты исследуются с использованием герменевтического, структурно-поэтического, психологического и контекстуального методов анализа. Основное внимание уделено образу отца, широкое толкование которого раскрывает уникальный стиль автора, мастерство создания образов и современную значимость функций, возложенных на эти образы. В статье рассматриваются социально-политический контекст и проблемы эпохи, человеческое «я» и внутренний мир, моральные ценности и вопросы правильной организации жизни как ключевые темы. Через образ отца выдвигается идея формирования «совершенного человека» — морально, духовно и социально зрелой личности. Данное исследование имеет важное значение для освещения духовно-эстетических ценностей средневековой тюркской литературы и способствует более глубокому пониманию произведения современными читателями и исследователями.

**Kalit so'zlar:** mumtoz adabiyot, pandnoma asar, ota obrazi, komil inson, poetik mazmun, talqin.

**Key words:** Classical literature, didactic work, father figure, perfect human, poetic content, interpretation.

**Ключевые слова:** Классическая литература, панднома (дидактическое произведение), образ отца, совершенный человек, поэтическое содержание, толкование.

**KIRISH**

Inson intellekti shu darajada taraqqiy etdiki, o'zini ijtimoiy to'da tuzumi davridan bugungi texnologiyalar davrigacha olib keldi. Yayov ov qilish jarayonidan bir xonada o'tirib soniyalar ichida qit'alararo aloqa qila boshladi. Bu albatta, ilm-fanning, inson tafakkurining tengsiz yutuqlaridir. Hayotning istalgan jabhasidagi rivojlanish uning asrlar davomidagi kuzatishlari, qarashlari, tahlillari natijasidir. Zero, dunyo ommasida tarix degan oyna, ota-bobolar yozib qoldirgan adabiyotlar mavjud ekan, inson hali bundan-da yuksak cho'qqilarga erishadi.

Jahon adabiyotiga yetuk durdonalar bera olgan o'zbek adabiyotida ham o'ziga xos asarlar mavjud. Ularning ba'zilari shu darajada mahorat bilan yaratilganki, millati-yu irqi, dinidan qat'iy nazar insoniyat hayoti uchun o'lmas manbadir. Ulardan biri XI asrning noyob yodgorligi, turkiy dunyo durdonalaridan biri Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asar to'la pandnoma ruhida, masnaviy shaklda yaratilgan. Asarni ilmiy jihatdan jahon tilshunoslari V.V.Radlov, A.Vamberi, P.M. Melioranskiy, A.A. Samoylovich, R.R.Aratlar birinchilardan bo'lib o'rgandi. 1924-yilda Abduraf Fitrat esa asarning Namangan nusxasini ilm-fanga ma'lum etgan. Ilk marta o'zbek tilida tabdil qilib, nashrga professor Qayum Karimov tayyorlagan. O'zbek olimlaridan Q.Sodiqov, Z.Sodiqov, B.To'xliyevlar ham ish olib bordilar. Ular asarni turli aspektdan tadqiq etishdi va tabdillarini e'lon qilishdi.

### NATIJALAR

Adabiyotshunos olim Qayum Karimov: "XI asrda yaratilgan "Qutadg'u bilig" poemasi qardosh turkiy tilda gaplashuvchi xalqlarning hozircha bizgacha yetib kelgan birinchi badiiy asari, o'sha davr adabiy tilidan shahodat beruvchi yagona namunadir"[1, 5] – deya e'tirof etadi. Ammo shu asarning o'ziyoq o'sha davr ijtimoiy-ma'naviy manzarasini adabiyotdagi estetik ideal orqali ko'rsatishning yaqqol namunasidir. Ya'ni asarda muallif: "Ideal shaxs, jamiyat, davlat, qanday shakllanishi kerak, ideal shaxs fazilatlarini qanday bo'lishi kerak va bu fazilatga qanday qilib erishish kerak, mansab sohiblarining xususiy, shaxsiy hayoti va jamiyat hamda davlat manfaatlariga munosabati qay tartibda bo'lishi shart, ana shu muhim masalalarning falsafiy sistemasini yaratadi." [1, 25] Davr hukmdori Tavg'ach Bug'ro Qoraxonga taqdim qilingan asar muallifning nechog'lik dunyoqarashi keng, yetuk ilmiy, qomusiy bilimli inson ekanidan dalolat beradi. Asar insonni inson qilib voyaga yetkazishdagi eng asosiy manbalardan biridir. Hayotning har jabhasiga alohida to'xtaladi. Kuntug'di – adolatli podsho. U davlatni xalq roziligi bilan boshqarishni xohlaydi. Shuning uchun atrofiga ilm kishilarini yig'adi. U aql, bilim egalarini juda qadrlaydi. O'yo'ldi esa aynan shunday shaxs. Ammo uning vaqti-soati yetib vafot etadi. Uning o'rniga o'g'li O'gdulmish keladi. Podshoga barcha ezguliklarni endi u yetkazadi. Ularning suhbatlari asnosida hayotdagi komil inson manzarasi ochila boradi. Muallif har bir masalani yoritir ekan, bosqichma-bosqich, raqamlab izohi bilan taqdim etadi. Unga isbot bo'luvchi to'rtliklarni ilova qiladi. Asarni o'qir ekanmiz, "hayotning oddiy ikir-chikirlaridan tortib yulduz sirlarigacha, kohlinalar davolash usulining soxtaligidan tortib...qon bosimi oshishiyu qon olishgacha, oddiy bir kishi bilan gaplashishdan tortib davlatni idora qilish usulining nozik sirlarigacha"[1, 35] qalamga olinganiga amin bo'lamiz.

### MUHOKAMA

Asar badiiy jihatdan murakkab qurilishga ega, hayotiy nasihatlar jamlanmasi hisoblanadi. Bu haqda asarning o'zida ham qayd etiladi:

Boshdan oxirigacha donolar so'zi,

Go'yoki tizilgan marjonning o'zi.[3, 5]

Shunday ekan muallifning turkiylarda muqaddas hisoblangan oila masalasiga, ota-onalik mas'uliyatiga diqqat qaratmasligi mumkin emas edi. Asarda ota obrazi va otalik yetakchi mavzulardan biridir. Chunki ota har bir tirik jon uchun, mavjudot uchun yaratuvchi. Muallif ta'kidlaganidek,

O'g'il [ya'ni farzand] otaning belidan paydo bo'lsa,

Ona qorni (rahmi) uning uchun bir necha oylik sokin manzildir.[1, 255]

Yuqoridagi fikrni Abu Nasr Forobiy ham qayd etgan edi. Ya'ni otaning "yaratuvchi" sifatidagi roliga e'tibor qaratib, u Alloh va mavjudotning yaratilish mohiyatini tushuntirar ekan, ota-onani misol qilib keltiradi: "Bu xuddi Birinchining borlig'i misoli, bir o'g'ilning borligiga ota-onasi sabab bo'lgani kabidir"[2, 20] — deya ta'kidlaydi. Shundan ma'lum bo'ladiki, farzandning jismoniy va ma'naviy

## ADABIYOTSHUNOSLIK

shakllanishida ota o'zni beqiyosdir. Dunyoga kelib voyaga yetishi, yetuk farzand bo'lishi ota tufayli sodir bo'ladi.

Ota obrazi adabiyotda eng mumtoz mavzulardan biri bo'lib, qadimdan mavjud va insoniyat ma'naviy merosida alohida o'rin egallaydi. Chunki ota – oilaning tayanchi, farzand va uning tarbiyasi bosh mas'uli va jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligini ta'minlovchi timsol sifatida tasvirlanadi. Badiiy asarlarda ota siymosi orqali ulug'vorlik, insoniylik, fidoyilik, mehr-oqibat, mas'uliyat kabi fazilatlar ifodalanadi. Shu bilan birga, ota obrazi faqatgina oila doirasi bilan chegaralanib qolmay, balki jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, davr ruhiyati hamda milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi.

Adabiyotda obraz asar kaliti hisoblanadi. "Qutadg'u bilig"da esa: "Asardagi to'rt qahramon ideal orzu timsoli sifatida gavdalanadi: Kuntug'di (chiqqan kun) – adolat, Oyto'ldi (to'lgan oy) – baxt va davlat, O'gdulmish (aqlga to'lgan) – aql, O'zg'urmish (uyg'ongan) – qanoat timsoli"[1, 7] edi. Bulardan Oyto'ldi yetuk; maslahatchi ota obrazida namoyon bo'ladi. Kuntug'di esa O'gdulmishga "ma'naviy ota" qiyofasida gavdalanadi. Muallif ota va onalikda mehr konseptiga urg'u beradi. Bir necha o'rinda "ota-onaday mehribon", "otangdan mehribon bo'lib" kabi jumllarini qo'llaydi. Chunki odam mehr bilan haqiqiy inson darajasiga ko'tariladi. Otaning bosh maqsadi, vazifasi chin inson tarbiyalshdir. Ya'ni:

Mehribon kishi nima deydi eshit,

Mehribonlik – bu insonlikning bosh (belgisi) dir. [1,251]

Oyto'ldi yagona farzandi – O'gdulmishga nasihat qilar ekan, ota-farzand munosabatlari umr oxirida, ya'ni Oyto'ldi o'lim topayotgan vaqtda yuz beradi. U umr bo'yi hayotdan chiqargan xulosalarini farzandiga taqdim etadi. Aslida, otalarning bosh funksiyasi ham shunday, farzandining hayoti o'zi kechirgan hayotdan yaxshiroq bo'lishi, o'zi intilgan yaxshilik, ezguliklarga bolasining sohib bo'lishidir. Asarda O'gdulmishga "o'g'lim", "chiroyli yuzlim", "qo'zim", "bag'imning o'ti", "yuzi ko'rkligim" kabi undalmalar bilan murojaat etgan ota hayotiy o'n masalani vasiyat qilib qoldiradi. Ular:

1. Mol-dunyoga o'ch bo'lmaslik.
2. O'limga chora yo'qligi.
3. Xushxulq bo'lish haqida.
4. Nafs va halollik.
5. Tanqidiy fikrlash.
6. Oila masalasi.
7. Rostgo'ylik va fe'li to'g'ri bo'lish.
8. Sabrlilik va g'azab.
9. Andishalilik.
10. Har jabhada xushyorlik masalasi.

Muallif yuqoridagilarni obrazli tarzda, isboti bilan berar ekan, hayotning deyarli barcha jihatlarini qamrab oladi. Kuntug'di ham O'gdulmishga murojaatida "qo'zim", "chiroyli yuzim", "ey saxiy", "xushyor", "dono", "mard", "ko'ngli pok" kabilarni ishlatadi. Barcha zamonlarda ham otalar o'z farzandlarini eng ardoqli, xalq ichida aziz bo'lishlarini xohlagan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muallif ota va onani farzand va uning kamoloti uchun birinchi javobgar shaxs deya qaraydi, agar ular yo'ldan ozsa, aybdor ham ota va onadir degan g'oyani ilgari suradi. Zero,

"O'g'il va qizning sababi ota va onadir,

(Ularning) xulqi buzilsa yoki yana qaytadan yaxshilansa (ular unga sabab)[1, 269]

Bunda muallif inson va jamiyat munosabatlarini falsafiy-estetik nuqtayi nazardan talqin etar ekan, ota obrazini ijtimoiy-ma'naviy manzaraning markaziy timsoli sifatida qaraydi. Ota shaxsi orqali insonni yetuklikka yetaklovchi axloqiy, ruhiy va ma'naviy mezonlar tahlil qilinadi. Muallif nazarida ota — bu nafaqat oilaning tayanchi, balki farzandni chin inson darajasiga ko'taruvchi, unga hayotiy yo'l ko'rsatuvchi rahnamo sifatida namoyon bo'ladi.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asar pandnoma ruhida yaratilgan. Hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan va muallif kuzatishlari asosida ideal holatga keltirilgan. "Qutadg'u bilig" nafaqat o'z davrining, balki bugungi kunning ham dolzarb muammolarini ochib bergan. Insonning inson bo'lib shakllanishidagi eng asosiy elementlarni mahorat bilan qalamga olgan. Asarda ota

shaxsining badiiy ifodasi orqali jamiyatning ma'naviy barkamolligi, insoniy fazilatlarining oliy darajada shakllanishi va tarbiyaviy qadriyatlarning uzviyligi ochib beriladi. Bundan tashqari, muallif ota qanday xulqli, aql-idrokli bo'lsa, farzand ham u kabi bo'lishi g'oyasini ilgari suradi. Shu tariqa, muallif ota obrazini milliy adabiyotdagi insonparvarlik, axloq va ta'lim-tarbiya masalalarining badiiy-falsafiy asosi sifatida talqin etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан”, 1972. – Б. 964.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004. – B.160
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (“Saodatga eltuvchi bilim”). Toshkent: “Cho‘lpon”, 2007. – B. 200
4. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “Sano-standart”, 2017. – B. 556
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Navoiy universiteti”, 2018. – B.478